



FAN, TA'LIM, MADANIYAT VA INNOVATSIYA

[Jild: 5 Nashr: 02 (2026)] ISSN: 2992-8915

www.mudarrisziyo.uz

BADIIY MATNDA ELLIPSISNI O'RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI (ERNEST XEMINGUEY ASARLARI TAHLILIDA)

Muxlisa Nizametdinovna Nasretdinova¹

¹Katta o'qituvchi, Toshkent davlat sharqshunoslik Universiteti

Annotatsiya: Mazkur maqolada badiiy matnda ellipsis hodisasining nazariy asoslari va uning stilistik hamda semantik xususiyatlari Ernest Xeminguey asarlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqotda ellipsisning badiiy nutqdagi o'рни, uning matn ixchamligi, ifoda kuchi va badiiy tasvir vositasi sifatidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Xeminguey ijodiga xos bo'lgan lakonik uslub, yashirin ma'no va "muz tog'i" tamoyili bilan bog'liq holda ellipsisning qo'llanishi tahlil etilib, u orqali muallifning badiiy fikrni qisqa, ammo ta'sirchan shaklda ifodalash usullari ochib beriladi. Shuningdek, ellipsisning matn semantikasi, kontekstual ma'no shakllanishi hamda o'quvchi tomonidan mazmunni anglash jarayonidagi o'рни yoritiladi. Tadqiqot natijalari badiiy matn lingvistikasi, stilistika va tarjima nazariyasi uchun muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: ellipsis, badiiy matn, stilistika, Ernest Xeminguey, lakonizm, "muz tog'i" tamoyili, yashirin ma'no, badiiy nutq, badiiy ifoda.

Kirish

Zamonaviy tilshunoslikda badiiy matnning lingvistik xususiyatlarini o'rganish, ayniqsa undagi sintaktik va stilistik vositalarning badiiy mazmunni ifodalashdagi o'рни alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Badiiy nutqda muallif fikrini qisqa, ta'sirchan va mazmunan boy tarzda ifodalash uchun turli til vositalaridan foydalanadi. Shunday vositalardan biri ellipsis bo'lib, u nutqda ayrim sintaktik birliklarning tushirilishi orqali matn ixchamligini ta'minlaydi hamda badiiy ifoda kuchini oshiradi. Ellipsis hodisasi nafaqat grammatik jihatdan, balki stilistik va semantik nuqtayi nazardan ham muhim tadqiqot obyekti hisoblanadi.



Ellipsis badiiy matnda kontekst orqali anglashiladigan, ammo grammatik jihatdan ifodalanmagan birliklar vositasida mazmuni ifodalashga xizmat qiladi. Bunday usul muallifga matnni ortiqcha tafsilotlarsiz, lakonik tarzda bayon qilish imkonini beradi. Natijada o'quvchi matnni idrok etish jarayonida faol ishtirok etadi va tushirilgan birliklarni kontekst asosida tiklaydi. Shu jihatdan ellipsis badiiy matnning pragmatik va estetik ta'sirchanligini oshiruvchi muhim stilistik vosita sifatida qaraladi.

XX asr jahon adabiyotida minimalistik uslubning yorqin namoyandalaridan biri bo'lgan Ernest Xeminguey ijodida ellipsis alohida ahamiyat kasb etadi. Yozuvchi o'zining mashhur "muz tog'i" (iceberg theory) tamoyiliga asoslanib, matnda fikrning faqat muhim qismini ifodalash, qolgan mazmuni esa yashirin holda qoldirish usulidan keng foydalangan. Bu uslub orqali muallif badiiy tasvirni soddalashtirgan holda, uning semantik chuqurligini saqlab qolishga erishgan. Shuning uchun ham Xeminguey asarlarida ellipsis nafaqat sintaktik qisqartirish vositasi, balki muallif uslubining muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur maqolada badiiy matnda ellipsis hodisasining nazariy asoslari hamda uning stilistik va semantik funksiyalari Ernest Xeminguey asarlari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida ellipsisning badiiy nutqdagi o'rnini, uning matnning ixchamligi va mazmuniy chuqurligini ta'minlashdagi roli yoritiladi.

Adabiyotlar metodologiyasi

Ellipsis hodisasi tilshunoslikda sintaksis, matn lingvistikasi va stilistika doirasida ko'plab olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Ushbu lingvistik hodisani ilmiy jihatdan o'rganishda bir qator xorijiy tilshunoslarning ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, daniyalik tilshunos Otto Jespersen o'zining grammatikaga oid tadqiqotlarida ellipsisni nutqdagi ayrim birliklarning tushirilishi orqali ifodaning ixchamligini ta'minlovchi vosita sifatida izohlaydi. Generativ grammatika asoschisi Noam Chomsky ellipsisni chuqur sintaktik tuzilma bilan bog'liq holda tahlil qilib, uning grammatik mexanizmlarini izohlab bergan. Funktsional grammatika nazariyasining yirik vakillari M. A. K. Halliday va Ruqiyah Hasan esa ellipsisni matnning kohesiv vositalaridan biri sifatida ko'rib, uning kontekstual bog'lanishlarni ta'minlashdagi rolini ilmiy asosda yoritganlar.

Rus tilshunosligida ham ellipsis hodisasi keng tadqiq etilgan. Jumladan, Viktor Vinogradov badiiy nutq sintaksisi va stilistikasi doirasida ellipsisning ifoda imkoniyatlarini tahlil qilgan bo'lsa, Irina Galperin matn lingvistikasi nuqtai nazaridan ellipsisni badiiy matnning stilistik vositalaridan biri sifatida o'rgangan. Shuningdek, Nina Arutyunova ellipsisning semantik va pragmatik xususiyatlarini tadqiq etgan.

O'zbek tilshunosligida ham ellipsis masalasi sintaksis va stilistika doirasida ma'lum darajada o'rganilgan. Xususan, Abduazizov A., G'ulomov A. hamda Mahmudov N.larning ilmiy ishlari o'zbek tili grammatikasi va badiiy nutq stilistikasi bilan bog'liq tadqiqotlarda ellipsis hodisasining nutq ixchamligini ta'minlovchi va kontekstual ma'noni shakllantiruvchi muhim vosita ekanligini ko'rsatib berib, badiiy matn lingvistikasi yo'nalishida olib borilgan tadqiqotlarda ellipsisning muallif uslubini shakllantirishdagi o'rnini alohida ta'kidlanadi.

Tahillar qismi: Badiiy matnda ellipsis muallif nutqining ixchamligini ta'minlaydigan, semantik jihatdan boy ma'no hosil qiladigan muhim stilistik vositalardan biridir. Ellipsis orqali gapning ayrim sintaktik unsurlari tushiriladi, biroq ular kontekst orqali o'quvchi tomonidan tiklanadi. XX asr amerika adabiyotining mashhur namoyandasi Ernest Hemingway ijodida ellipsis keng qo'llanilib, u yozuvchining minimalistik uslubini shakllantiruvchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi. Yozuvchi o'zining mashhur "muz tog'i nazariyasi"ga ko'ra matnda faqat zarur ma'lumotni beradi, qolgan

mazmun esa yashirin tarzda o'quvchi tomonidan anglanadi, shu sababli uning asarlarida qisqa, lo'nda va ko'pincha elliptik gaplar keng uchraydi.

Xemingueyning mashhur *The Old Man and the Sea* asarida ellipsis orqali dialoglar tabiiy va ixcham shaklda beriladi. Masalan, asarda chol va bola o'rtasidagi suhbatda quyidagi dialog uchraydi:

"What do you have to eat?" the boy asked.

"A pot of yellow rice with fish. Do you want some?"

Bu dialogda birinchi gap aslida *"What do you have to eat today?"* yoki *"What do you have to eat now?"* kabi to'liq shaklda bo'lishi mumkin edi. Ikkinchi gap ham aslida *"I have a pot of yellow rice with fish"* tarzida to'liq ifodalanishi mumkin. Biroq muallif *I have* qismini tushirib qoldirib, elliptik gapdan foydalanadi. Natijada nutq tabiiy og'zaki muloqot shakliga yaqinlashadi va matnning realizmi kuchayadi.

Ushbu asarda yana bir elliptik dialogni ko'rish mumkin:

"Going out?"

"Yes. Before daylight."

Ikkinchi jumla grammatik jihatdan *"Yes, I will go out before daylight"* tarzida kengroq shaklda bo'lishi mumkin edi. Ammo muallif gapning ayrim bo'laklarini tushirib qoldirib, nutqni ixchamlashtiradi. Ellipsis orqali dialog tezkor va tabiiy ohangda beriladi hamda qahramonlar nutqining sodda va lo'nda xarakteri ochib beriladi.

Xemingueyning *Hills Like White Elephants* hikoyasida ham ellipsis muhim stilistik vosita sifatida qo'llanadi. Asarda qahramonlar o'rtasidagi dialoglar ko'pincha qisqa va elliptik shaklda berilgan:

"It's really an awfully simple operation, Jig," the man said.

"Then what will we do afterward?"

Ikkinchi jumlada *"afterward"* so'zi kontekst orqali tushuniladi. Aslida gap *"What will we do afterward if the operation is done?"* tarzida kengroq shaklda bo'lishi mumkin edi. Biroq muallif ayrim sintaktik elementlarni tushirib qoldirib, dialogni ixcham shaklda beradi. Natijada qahramonlarning ichki ziddiyatlari va ruhiy holati yashirin tarzda ifodalanadi.

Yozuvchining yana bir mashhur hikoyasi *A Clean, Well-Lighted Place* da ham ellipsis badiiy nutqning asosiy xususiyatlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi. Hikoyada qahramonning buyurtmasi quyidagicha beriladi:

"Another brandy," he said.

Bu gap aslida *"Bring me another brandy"* yoki *"I would like another brandy"* tarzida to'liq ifodalanishi mumkin edi. Ammo muallif elliptik shaklni tanlab, gapni qisqartiradi. Natijada dialog real og'zaki nutqqa yaqinlashadi va matnning tabiiyligi ortadi. Xemingueyning *The Sun Also Rises* romanida ham elliptik dialoglar keng uchraydi. Masalan:

"Going to the café?"

"Sure."

Ikkinchi gap aslida “*Yes, I am going to the café*” tarzida kengroq ifodalanishi mumkin edi. Biroq muallif elliptik shakldan foydalanib, dialogni sodda va tabiiy ohangda beradi. Yuqoridagi misollar shuni ko‘rsatadiki, Xeminguey asarlarida ellipsis bir necha muhim funksiyani bajaradi. Birinchidan, u badiiy nutqni ixchamlashtiradi va ortiqcha grammatik elementlarni qisqartiradi. Ikkinchidan, dialoglarni tabiiy og‘zaki nutqqa yaqinlashtiradi. Uchinchidan, matnda yashirin ma’nolarni yuzaga keltirib, o‘quvchini matn mazmunini faol ravishda anglashga undaydi. Shu jihatdan ellipsis Xeminguey uslubining ajralmas qismi bo‘lib, uning minimalistik badiiy ifoda uslubini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Tadqiqot davomida Ernest Hemingway asarlarida ellipsis hodisasining qo‘llanish xususiyatlari statistik jihatdan tahlil qilindi. Tahlil uchun *The Old Man and the Sea*, *Hills Like White Elephants*, *A Clean, Well-Lighted Place* hamda *The Sun Also Rises* asarlaridan tanlab olingan matnlar asos qilib olindi. Natijada ushbu asarlarda jami 146 ta elliptik konstruktsiya aniqlangan bo‘lib, bu Xeminguey uslubida ellipsis muhim stilistik vosita ekanligini tasdiqlaydi. (1-jadvalga qarang)

Asarlar kesimida ellipsis qo‘llanishi 1-jadval.

Asar nomi	Elliptik konstruktsiyalar soni	Ulushi (%)
<i>The Old Man and the Sea</i>	48	32.9 %
<i>Hills Like White Elephants</i>	36	24.7 %
<i>A Clean, Well-Lighted Place</i>	28	19.2 %
<i>The Sun Also Rises</i> (tahlil qilingan qism)	34	23.2 %
Jami	146	100 %

Jadval natijalari shuni ko‘rsatadiki, ellipsis eng ko‘p “*The Old Man and the Sea*” asarida uchraydi (48 ta holat yoki 32,9%). Buning asosiy sababi asarda dialoglar ko‘pligi va qahramonlar nutqining sodda, tabiiy shaklda berilganligidir. Asarda chol va bola o‘rtasidagi suhbatlar ko‘pincha qisqa va lo‘nda gaplardan iborat bo‘lib, ularda ega yoki kesimning tushirilishi kuzatiladi. Bu holat qahramonlarning og‘zaki nutqini real hayotdagi muloqotga yaqinlashtiradi.

“*Hills Like White Elephants*” hikoyasida esa 36 ta (24,7%) elliptik konstruktsiya aniqlangan. Ushbu hikoyaning asosiy badiiy xususiyati dialogga asoslangan kompozitsiya hisoblanadi. Hikoyada qahramonlar o‘rtasidagi suhbat qisqa gaplar orqali berilgan bo‘lib, unda ko‘plab grammatik birliklar tushirib qoldirilgan. Bunday elliptik tuzilmalar qahramonlar o‘rtasidagi ruhiy ziddiyatni yashirin tarzda ifodalashga xizmat qiladi. Muallif ayrim fikrlarni to‘liq ifodalamasdan, o‘quvchini kontekst orqali mazmunni anglashga undaydi.

“*A Clean, Well-Lighted Place*” hikoyasida 28 ta (19,2%) elliptik konstruktsiya aniqlangan. Ushbu asarda ellipsis asosan qahramonlarning qisqa buyruq yoki so‘rov shaklidagi nutqida qo‘llanadi. Masalan, buyurtma yoki qisqa javob shaklidagi gaplarda ega yoki kesim tushiriladi. Bu esa dialoglarning tezkor va tabiiy tus olishiga xizmat qiladi.

“*The Sun Also Rises*” romanining tahlil qilingan qismlarida 34 ta (23,2%) elliptik konstruktsiya kuzatilgan. Roman dialoglarga boy bo‘lib, qahramonlar o‘rtasidagi muloqotda elliptik gaplar keng qo‘llanadi. Bunday nutq shakli qahramonlarning norasmiy muloqot muhitini, ularning kundalik hayotdagi suhbat tarzini ifodalashga yordam beradi.

Nutq turiga ko'ra ellipsis qo'llanishi 2-jadval.

Nutq turi	Misollar soni	Ulushi (%)
Dialogik nutq	96	65.7 %
Monologik nutq	32	21.9 %
Muallif nutqi	18	12.4 %
Jami	146	100 %

Ikkinchi jadval natijalari ellipsisning nutq turlariga ko'ra taqsimlanishini ko'rsatadi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ellipsislarining 65,7% i dialogik nutqda uchraydi. Bu holat Xeminguey ijodida dialoglar muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Dialoglarda ellipsisning keng qo'llanishi qahramon nutqini tabiiy og'zaki muloqotga yaqinlashtiradi. Chunki real hayotdagi muloqot jarayonida ham odamlar ko'pincha to'liq grammatik konstruktsiyalardan foydalanmaydi, balki kontekst orqali tushunarli bo'lgan qisqa gaplardan foydalanadi.

Monologik nutqda ellipsis 21,9% ni tashkil etadi. Bu holat qahramonlarning ichki fikrlari yoki qisqa tavsiflarda kuzatiladi. Muallif monologik nutqda ham ortiqcha grammatik elementlarni qisqartirib, matni lo'nda va mazmunan zich shaklda ifodalaydi. Muallif nutqida uchraydigan ellipsislar esa 12,4% ni tashkil etadi. Bu turdagi ellipsislar asosan tasviriy yoki tavsifiy jummalarda uchraydi.

Sintaktik tuzilishiga ko'ra ellipsis turlari 3-jadval.

Ellipsis turi	Misollar soni	Ulushi (%)
Ega tushirilgan elliptik gaplar	41	28 %
Kesim tushirilgan elliptik gaplar	37	25 %
Ega va kesim tushirilgan gaplar	29	19.8 %
Ikkinchi darajali bo'laklar tushirilgan gaplar	39	26.7 %
Jami	146	100 %

Uchinchi jadval ellipsisning sintaktik tuzilishiga ko'ra taqsimlanishini ko'rsatadi. Tahlil natijalariga ko'ra, ega tushirilgan elliptik gaplar (28%) eng ko'p uchraydi. Bunday gaplarda kesim saqlanib qoladi, ammo ega kontekst orqali anglashiladi. Bu ayniqsa dialoglarda keng qo'llanadi.

Ikkinchi o'rinda kesim tushirilgan elliptik gaplar (25%) turadi. Bu turdagi konstruktsiyalarda ega mavjud bo'ladi, ammo kesim tushirib qoldiriladi. Bunday elliptik gaplar ko'pincha qisqa javob yoki tasdiq shaklidagi nutqda uchraydi. Ega va kesim birgalikda tushirilgan elliptik konstruktsiyalar (19,8%) ham uchraydi. Bu holatda gapning asosiy grammatik markazi tushirib qoldiriladi, ammo uning mazmuni kontekst orqali tiklanadi. Bundan tashqari, ikkinchi darajali bo'laklar tushirilgan gaplar (26,7%) ham keng qo'llanadi. Bu turdagi ellipsis nutqni yanada ixchamlashtiradi va matnning semantik zichligini oshiradi.

Umuman olganda, statistik tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, ellipsis Ernest Hemingway badiiy uslubining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. U yozuvchining minimalistik poetikasini namoyon etib, matnning ixchamligi, tabiiyligi va semantik chuqurligini ta'minlaydi. Ellipsis yordamida muallif badiiy matnda yashirin ma'no qatlamini yaratadi va o'quvchini matnni faol talqin qilish jarayoniga jalb etadi.

Tadqiqot natijalari

Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, badiiy matnda ellipsis muhim stilistik va semantik vositalardan biri bo'lib, u nutqning ixchamligi, mazmuniy chuqurligi hamda badiiy ifoda ta'sirchanligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot jarayonida ellipsisning nazariy asoslari



hamda uning badiiy matndagi funksional xususiyatlari Ernest Hemingway asarlari misolida o'rganildi.

Tahlil natijalariga ko'ra, Xeminguey asarlarida ellipsis ko'pincha dialoglarda qo'llanib, qahramonlar nutqini tabiiy og'zaki muloqotga yaqinlashtiradi. Bunday elliptik konstruktsiyalar nutqni ortiqcha grammatik elementlardan xoli qiladi va matnning lakonik uslubda ifodalanishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ellipsis yordamida matnda yashirin semantik qatlam yuzaga keladi, bu esa o'quvchini kontekst orqali tushirilgan birliklarni tiklashga undaydi.

Tadqiqot davomida aniqlanishicha, Xeminguey ijodida ellipsis bir necha muhim funksiyani bajaradi: birinchidan, u badiiy nutqning ixchamligini ta'minlaydi; ikkinchidan, dialoglarning tabiiyligini va realizmini kuchaytiradi; uchinchidan, matnda yashirin ma'no va semantik chuqurlik hosil qiladi. Bu holat yozuvchining mashhur "muz tog'i nazariyasi" bilan ham bevosita bog'liq bo'lib, matnda ifodalanmagan, ammo kontekst orqali anglashiladigan mazmun qatlamining shakllanishiga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ellipsis Xeminguey uslubining muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. U yozuvchining minimalistik badiiy ifoda uslubini yuzaga chiqarib, matnning semantik sig'imini oshiradi hamda o'quvchining matnni idrok etish jarayonidagi faol ishtirokini ta'minlaydi. Shu sababli ellipsis nafaqat sintaktik hodisa, balki badiiy matnning stilistik va pragmatik xususiyatlarini belgilovchi muhim lingvistik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Xulosa qismi

Mazkur tadqiqotda badiiy matnda ellipsis hodisasining nazariy asoslari hamda uning stilistik va semantik xususiyatlari Ernest Hemingway asarlari misolida tahlil qilindi. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, ellipsis badiiy nutqning muhim sintaktik va stilistik vositalaridan biri bo'lib, u matnning ixchamligi, ifoda kuchi va semantik chuqurligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

Tadqiqot jarayonida Xemingueyning *The Old Man and the Sea*, *Hills Like White Elephants*, *A Clean, Well-Lighted Place* hamda *The Sun Also Rises* asarlarida ellipsisning qo'llanishi tahlil qilindi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, ellipsis asosan dialogik nutqda qo'llanib, qahramonlar nutqining tabiiyligi va realizmini kuchaytiradi. Elliptik konstruktsiyalar yordamida muallif nutqni ortiqcha grammatik elementlardan xoli qilib, uni lo'nda va mazmunan boy shaklda ifodalashga erishadi.

Statistik tahlillar ellipsisning eng ko'p dialoglarda qo'llanishini ko'rsatdi. Bu holat yozuvchining minimalistik uslubi bilan bevosita bog'liq bo'lib, u o'zining mashhur "muz tog'i nazariyasi" orqali matnda ifodalanmagan, ammo kontekst orqali anglashiladigan yashirin semantik qatlamni yaratadi. Natijada o'quvchi matn mazmunini anglash jarayonida faol ishtirok etadi va tushirilgan sintaktik birliklarni kontekst asosida tiklaydi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, ellipsis nafaqat grammatik qisqartirish vositasi, balki badiiy matnning stilistik va pragmatik xususiyatlarini belgilovchi muhim lingvistik hodisa hisoblanadi. U badiiy nutqning ekspressivligini oshirib, muallif uslubining shakllanishida muhim o'rin tutadi. Shu sababli ellipsisni badiiy matn lingvistikasi, stilistika hamda tarjima nazariyasi nuqtai nazaridan o'rganish muhim ilmiy ahamiyatga ega.



Foydalanilgan adabiyotlar

1. Nasretdinova M. N. The problem of ellipsis in translation from English into Russian //SHOKH LIBRARY. – 2025.
2. Ibragimova A., Nizametdinovna N. M. BILINGUALISM AND BEYOND: EXPLORING THE BENEFITS AND CHALLENGES OF MULTILINGUALISM //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2024. – Т. 2. – №. 21. – С. 375-378.
3. Nasretdinova M. N. Figure Of Speech In Fiction And Studying The Concept Of Ellipsis //PERFECT EDUCATION FAIRY. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 23-35.
4. Abdusamatovna F. N. TEACHING ENGLISH FOR SPECIFIC PURPOSES //PEDAGOGIK TADQIQOTLAR JURNALI. – 2025. – Т. 3. – №. 1. – С. 792-795.
5. Kuryozova G. A., Fuzaylova N. A. TRANSLATING WORDS AND PHRASES TAKING INTO ACCOUNT CULTURAL CONTEXT //SHOKH LIBRARY. – 2025.
6. Nasretdinova M. N., Ruxshona X. Methods of Analysizing New Words by Reading Texts //Journal of Higher Education and Academic Advancement. – 2024. – Т. 1. – С. 229-232.
7. Насретдинова М. Н. Эллипсис в русском языке и подходы к его изучению // Вестник Хорезмской академии Маъмуна. 2023/5/4. С.251-255.
8. Nasretdinova, Mukhlisa Nizometdinovna, and Yuldiz Uktamovna Ishmatova. "EXPRESSION OF THE ELLIPSE PHENOMENON IN TRANSLATIONS. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2 (10), 11–13." 2021
9. Насретдинова М. Н. БАДИЙ АДАБИЁТДА ЭЛЛИПСИСНИ ТАРЖИМАДА ҚАЙТА ЯРАТИШ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИГА ДОИР //Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 3. – С. 610-615.
10. NASRETDINOVA M. N. et al. ANALYSIS OF STYLISTIC ASPECTS OF THE APPEARANCE OF ELLIPSIS IN SPEECH //SOUTH EASTERN EUROPEAN JOURNAL OF PUBLIC HEALTH. – 2024. – С. 1676-1680.